INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
Volume 1,issue 1,2023

NORMUSHK TURLARINING BOTANIK TAVSIFI, SISTEMATIKASI, GEOGRAFIK TARQALISHINI O'RGANISH

Turdiyeva Gulsanam Baxriddin qizi

Toshkent davlat Agrar universiteti

Annotatsiya: Normushkning O'zbekiston florasida tarqalgan turlari bilan tanishtirish, o'simliklarning sistematikasidagi o'rni va o'simliklar qoplamidagi ahamiyati haqida ma'lumot berish.
Kalit so'zlar: normushk, xalq tabobati, ilmiy tibbiyot, damlama, qaynatma, xalq tabobati, ilmiy tibbiyot.

O'zbekiston tabiati o'zining betakror go'zalliklari, serquyoshligi, tuproq va suvi bilan alohida ajralib turadi. SHuning uchun ham uning o'simliklar dunyosi nihoyatda boydir. Ko'p o'simliklar o'zining shifobaxshligi bilan halqimiz orasida keng tarqalgan bo'lib, ular halq va ilmiy tabobatda muvaffaqqiyatli qo'llanib kelinmoqda. O'zbekiston foydali o'simliklari fani — foydali o'simlik turlari, foydali o'simliklarning foydali xususiyatlariga ko'ra guruhlarini o'rganadi, tahlil qiladi. O'zbekiston foydali o'simliklari fanining vazifasi foydali o'simliklarning botanik tavsifi va sistematikasi, tabiiy tarqalishi va ekologiyasi, foydali xususiyatlari va xalq xo'jaligida qo'llanilishi, inson hayotidagi roli va ahamiyati masalalarini o'rganishdan iborat. O'simliklar o'z tarkibida kishi organizmiga qandaydir ta'sir ko'rsata oladigan biologik faol moddalar saqlaydi. Biologik faol moddalar o'simliklarning hamma organlarida bir xil miqdorda to'planmaydi. Ba'zi o'simliklarda yer ostki organlarida, ba'zilarida yer ustki qismida to'planadi. Hozirgi paytda shifobaxsh o'simliklardan tayyorlangan dori-darmonlar keng miqyosda qo'llanilib kelinmoqda. Ruhiy xastaliklarni davolashda dorivor o'simliklarning 18 turidan, saratonni davolashda 7 turidan, qandli diabetda 24 turidan, ateroskleroz, yurak-qon tomirlari sklerozida 25 turidan, oshqozon xastaliklarida 10 turidan, qon bosimi xastaliklarida 22 turidan keng foydalanilmoqda. Bundan tashqari, kashandalik va alkogolizmning oldini olishda, qondagi xolesterinni muvofiqlashtirib turishda ham shifobaxsh giyohlardan tayyorlangan dori-darmonlar yordam bermoqda.

Normushk qadimdan insoniyat tomonidan turli kasalliklarni davolashda ishlatib kelingan. Ularni turlari juda ko'p bo'lib yer yuzining hamma hududida (regionida) ishlatiladiganlaridan tashqari har bir hududning o'ziga xos dorivor o'simligi ham bo'ladi. Ammo, xalq tabobatida va anhanaviy (traditsion) tibbiyotda qo'llaniladigan dorivor o'simliklarning hammasi hali ilmiy tibbiyotda o'z o'rnini egallagani yo'q. Lekin ularning ba'zi birlari shu vaqtgacha davosi to'ilmagan kasalliklarga shifo bo'lishi ham mumkin. Ma'lumki, xalq tabobatida qo'llaniladigan dorivor o'simliklar soni ilmiy tibbiyotda ishlatiladiganlaridan ancha ko'p. Masalan, O'zbekiston xalq tabobatida 500 dan ortiq o'simliklardan shifobaxsh vosita sifatida foydalaniladi, lekin shulardan 100 dan ortig'igina ilmiy tibbiyotda ishlatiladi. Agarda xalq tabobatida ko'llaniladigan o'simliklar har taraflama va chuqur o'rganilsa, ular ichidan shifobaxsh xususiyatga ega bo'lganlarini to'ilishi aniq. Odamlar ko'pincha dorivor o'simliklarni yig'ib, undan uy sharoitida o'zlari dori tayyorlab oladilar. Bu noto'g'ri, chunki o'simlikning qandayligini bilmay turib tayyorlangan dori yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, tabiatda tashqi ko'rinishidan Normushkga o'xshagan zaharli o'simliklar ham uchraydi. SHuning uchun dorivor o'simliklarni yig'ishdan avval ularning botanik alomatlarini, yig'ib olinadigan

muddatini bilish kerak bo'ladi. Dorivor moddalar o'simliklarning ba'zilarida kurtagida, bargida yoki poyasida, ba'zi o'simliklarning guli yoki mevasida, ba'zilarining esa ildizi yoki po'stlog'ida to'planishi mumkin. Yuqorida aytilgandek, ko'pchilik dorivor o'simliklar tarkibida kuchli ta'sir ko'rsatuvchi zaharli moddalar bo'ladi.. SHuning uchun ularni ishlatishda belgilangan dozalarga qathiy amal qilish kerak. Hozirgi kunda ilmiy tibbiyotda qo'llanilayotgan ko'pchilik dorivor o'simliklar aslida xalq tabobatidan olingan. Ilmiy tabobatda ishlatiladigan normushkning aksariyati asrlar davomida xalq ishlatib kelgan o'simliklardan olingan. Normushkni 2 xil tavsiflash qabul qilingan: 1. Ta'sir qiluvchi moddalarning tarkibiga qarab - alkoloidli, glikozidli, efir moyli, vitaminli va boshqalar. Bu guruh vakillari to'g'risida kimyoviy tasnif mavzusida aytib o'tildi.

2. Farmokologik ko'rsatkichlariga qarab — tinchlantiruvchi, og'riq qoldiruvchi, uxlatuvchi, shuningdek, yurak-tomir tizimiga ta'sir qiluvchi, markaziy nerv tizimini qo'zg'atuvchi, qon bosimini pasaytiruvchi va boshqa dorivor o'simliklar.

Toshkentdagi kimyo-farmatsevtika zavodlarida O'zbekistonda o'sadigan va ekib o'stiriladigan dorivor o'simliklardan turli-tuman dorilar tayyorlanadi. Masalan, oqqurayning ildizi va mevasidan pesni davolashda qo'llaniladigan psoralen, yapon soforasi g'unchasidan vitamin A dek ta'sir etuvchi rutin, omonqoradan galantamin alkoloidi, kendordan strofantin, simarin, yurak glikozidlari va boshqa preparatlar olina boshlandi. Bemorlarni davolashda qadimdan ishlatib kelinadigan an'anaviy dori turlaridan (qaynatma, nastoyka, ekstrakt, damlamadan) tashqari dorivor o'simliklardan fitopreparatlar ham olinadi.

Normushk yirik, bo'yi 2—3, bahzan 6 m gacha bo'lgan buta. Tikanlari yirik, gorizontal joylashgan, qattik, asos qismi kengaygan bo'lib, yirik shoxlarida zichroq joylashgan. Murakkab barg bo'lakchalari — bargchalari qalin, zangoriroq, tuksiz. Gullari yirik, oq yoki pushti rangli. Mevasi yirik (5 sm gacha uzunlikda), etli, to'q kizil, tuxumsimon, chopziq tuxumsimon yoki butilkasimon. Asosan O'rta Osiyoda (Tyan-SHan, Pomir-Oloy tog'larida) tog' yonbag'irlarida o'sadi. O'zbekistonning Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining tog'li hududlarida ko'p tarqalgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ermatova D.Ye. Moyli ekinlar. «Zarafshon» Samarqand 2001.
2. Ibragimov F., Ibragimova V. Osnovnые lekarstvennые sredstvo Kitayskoy meditsinы. Izd-vo «Medgiz» Moskva 2010.
3. Madraximov A.S. Avitsenna o lekarstvennых rasteniyax. Izd-vo «Mexnat» Tashkent. 2015g.
4. Nabiev M.M. Botanika atlas lo'g'ati. – Toshkent: Fan, 2009.